

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARIDAN FOYDALANISH

Achilova Soxibaxon Xamidovna

Qo`qon DPI o`qituvchisi

Mamasidiqova Cho`lponoy Erkinjonovna

Qo`qon DPI talabasi

O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk shaxslaridan biridir. Uning nomi va merosi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy kabi ulkan so'z san'atkorlarining nomi va merosidek o'lmasdir.

Navoiy merosi maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini shakllantirishda muhim vositalardan sanaladi.

Tafakkuri yaxshi rivojlangandagina bolaga ma'rifiy qarashlarni tezroq va osonroq singdirish mumkin. Bundan tashqari, ya'ni bolada nafaqat tafakkurning yaxshi shakllanishi, balki insonga xos bo'lgan barcha yaxshi xislatlar va fazilatlar ham mujassamlashgan bo'lmog'i lozim. Jumladan, odamiylik, qanoatlilik, do'stonalik, mehribonlik, rahmdillik, olijanoblik, xushmuomalalik, quntlilik, halollik, tirishqoqlik, chaqqonlik, zehnilik, xotirjamlik, topag'onlik, sinchkovlik, serg'ayratlik, jo'shqinlik, intizomlilik kabilar. To'g'ri, maktabgacha yoshdagi bolada bu xislatlarning barchasi shakllanib bo'lgan, deyish qiyin. Lekin mana shu fazilatlarini shakllantirish tarbiyachilar va ota-onalar vazifasi ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Biz tadqiqotlarimiz jarayonida maktabgacha tayyorlov davri (6-7 yosh) dagi bolalarga e'tibor qaratishni lozim topdik. Yuqorida sanab o'tilgan barcha xususiyatlar bu davrgacha ham ma'lum ma'noda shakllanib ulgurmog'i kerak. Bola chaqaloqligidanoq atrof-muhit bilan tanishib bora boshlaydi. U ona allasini eshitar ekan, unda mehribonlik, nafosatlilik kabi xususiyatlar shakllana boradi. Ota-onasining bir-biriga qilgan shirin muomalasidan, o'ziga bo'lgan munosabatidan axloqlilik, shirinsuxanlik sifatleri kurtak yoza boshlaydi. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelganida esa zehni o'stiruvchi, aqlini charhlovchi mashg'ulotlarda qatnashib borib, jamoat joyida o'zini tutishni, kattalar bilan qanday munosabatda bo'lish lozimligini, o'rganib boradi. Bularning barchasi bolani shaxs sifatida shakllanishiga turtki bo'ladi. Qachonki bola o'z shaxsini yaxshi anglab yetsa, atrofdagilariga o'zining qanday nafi tegishi mumkinligini bilib borsa, nima yaxshi, nima zararligini uqib olsa, uning kelajakka qarab ketadigan yo'li ravon deyish mumkin. Har bir boladagi kelajak yo'lining qanday bo'lishi oila va ta'lim tashkilotlariga bog'liq. Bola 2-3 yoshda oila a'zolarini taniydi va har bir harakatni ulardan o'rganib boradi. Bog'chada esa do'stlaridan va tarbiyachi opalardan o'rnak oladi. Oiladagi va bog'chadagi muhitning qanaqaligini bola kelajagini belgilovchi omillar qatoriga kiradi.

Avvalo, oila mustahkam, ma'naviy sof bo'lsa, unda tarbiyalanayotgan farzand ham o'sha toza muhitdan bahra oladi. Ona har doim bolani erkalab, alla aytib uxlatishi lozim. Ulg'aygan sari ota-ona unga ertaklar, rivoyatlar aytib ularning dunyoqarashi kengayishiga turtki bo'lishi lozim. To'g'ri so'zli bo'lishiga va hyech qachon yolg'on gapirmaslikka da'vat qilish kerak. O'zidan katta opa-akalarni hurmat qilishi, ular tomonidan berilgan vazifalarni bajarishi, ulardan qo'rqibroq turishi kerakligini ota-ona har doim bola ongiga singdirib borishi lozim. Qo'rqibroq turish degan jumla, biroz g'aliz tuyular, lekin inson psixikasi shunday, bir narsadan yoki biron kimdan haymiqsagina qilinmog'i kerak bo'lgan vazifa osonroq va tezroq bitadi. Ota-ona bolaning o'zidan kattalarga gap

qaytarishga hych qachon yo'l qo'ymasligi zarur. Shunday o'rinlar bo'lganida u bilan alohida gaplashib kerakli maslahatlarni berishi lozim bo'ladi.

Bolaning yarim kuni o'tadigan joyi bu ta'lim tashkilotlari hisoblanadi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola o'z kunining 9-10 soatlarini o'tkazishadi. Bunday vaqt mobaynida bola tarbiyachi nazoratida bo'ladi. O'z kasbini sevuvchi, bolalarga mehribon, o'z ishining ustasi bo'lgan bog'cha opa qo'liga bolalarni bemalol ishonaverish mumkin. Tarbiyachining o'zida ham shaxsga xos barcha fazilatlar bo'lishi darkor. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bola ma'naviyatini shakllantirish ko'p narsalarga bog'liq ekan.

Bola ma'naviyatini, tafakkurini shakllantiradigan vositalar ham ko'p. Shulardan biri bobomiz Alisher Navoiy merosi desak, adashmaymiz. Avvalo, Navoiy asarlarini bilish kerak, shundan keyin maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatsa bo'ladigan asarlarni tanlab olish lozim.

Alisher Navoiyning nasriy, nazmiy, ilmiy asarlari: "Xamsa", "Xazoyin ul-ma'oniy", "Devoni Foni", "Nazm ul-javohir", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Xamsat ul-mutahayrin", "Haloti Sayyid HASan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Vaqqiya", "Muhoakat ul-lug'atayin", "Mezon ul-avzon", "Mufradot", "Tarixi mulki Ajam", "Nasomul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo".

Keltirilgan asarlari orasida "Xamsa" tarkibidagi "Hayrat ul-abror" asari bog'cha yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloiy ruhda tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Biz tadqiqot jarayonini olib borishda shu narsani aniqladikki, faoliyatlar jarayonida "Nutq o'stirish" va "Badiiy adabiyot bilan tanishish" faoliyatlarida Navoiy merosidan foydalanishning imkoniyati mavjud ekan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Ik qadam" dasturiga Navoiyning "Sher bilan Durroj", "Himmatli bo'lsang", "Ikki vafoli yor", "Bir kabutar" kabi hikoyatlari kiritilgan. Keltirilgan hikoyatlar "Hikoya qilib berish" rukni ostida. Demak, tarbiyachi bu hikoyatlarni bolalarga so'zlab beradi. Hikoya qilish chog'ida bollalar gap nima haqida ketayotganligiga e'tibor berishlarini nazorat qilib turishi shart. Kerakli o'rinlarda savollar bilan murojaat qilib, bolalarni bahsga tortishi lozim. Bunda bola erkin fikrlashga, o'z fikrini bemalol bayon qilishga o'rganadi, qolaversa boshqalar fikrini eshitishga, hurmatlashga o'rganib boradi.

"Sher bilan Durroj" hikoyati orqali bola yolg'onchilikning oqibatlarini xususida Durrojning yolg'on gapirishlaridan bilib oladi. Tarbiyachi bu o'rinda qahramonlarni alohida ta'riflab o'tsa yaxshi bo'ladi. Sher – bu o'rmonlar shohi. U hych narsadan qo'rqmaydi. Lekin u o'z bolalarini o'ylaydi. Durrojning u yoqdan – bu yoqqa qilgan tinimsiz harakatlari bolalari tinchligini buzayapti. Shuning uchun katta bo'lishiga qaramasdan Durroj oldida bosh egib, u bilan do'stlashdi. Mana shu o'rinda tarbiyachi bolalarga o'z onalarining ular uchun hamma narsaga tayyorligini ta'kidlab, shuning uchun onalarining qadriga yetishi, ularni har doim yaxshi ko'rishi, ardoqlash, aytganlarini so'zsiz bajarishi kerakligini aytib o'tsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Vaziyatga qarab bolalardan navbatma-navbat onalariga qanday munosabatda bo'lishlari haqida so'rab borilsa ham o'rinli bo'ladi.

Durrojning mahmadonaligi, o'zbilarmonchiligi, yolg'onchiligi o'z boshiga kulfat olib kelganligini tarbiyachi obrazli qilib bolalarga yetkazish lozim. Bolalardan bu holatga munosabatlarini ham so'rasa yaxshi bo'ladi. Shunda bolaning yolg'on va yolg'onchilikka nafrati oshadi, oqibati yomon bo'lishini sezib yolg'on gapirmaslik lozim degan fikrni miyasida mustahkamlaydi. Boladagi rostgo'ylik xususiyatining shakllanishi uning ma'naviyati yuksalayotganligidan dalolat beradi. Xullas, rejada ko'rsatilgan har bir hikoyat bola dunyoqarashini kengaytirib, undagi insoniy fazilatlarini o'stirishda ko'maklashadi.

Bulardan tashqari "Hayrat ul-abror" dostonidagi adablilik odati, qanoat, saxiylik to'g'risidagi hikoyatlarni ham dastur tarkibiga kiritish lozim. Ularda aks etgan insoniy sifat va xususiyatlar orqali bolalar tafakkuri shakllantirilsa maqsadga muvofiq ish bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari Ro'yxatdan o'tish. 03.07.2018 yildagi 3032-son.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan) 2022-yil nashr etilgan dasturi.
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun – T.: 2019. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019. 9 oktyabr. №209(7439)-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
6. G Nazirova. Maktabgacha kattalardagi bolalarda xalq o'zaki ijodi vositasida milliy guruh hissini shakllantirish–ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida. Science and innovation 1 (B8), 2067-2077
7. GM Nazirova. CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGUES-EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS/ International Academic Research Journal Impact Factor 7 (1), 6
8. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact.
9. NA Sultonova, I Sh, D Xolqoziyeva - TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES, European Journal of Research and Reflection in Ed, 2020
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
13. EM Akilovna, THE COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR THE ORGANIZATION OF HEALTH CARE WORK FOR CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation_for_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC